

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY - MILLAT KO‘ZGUSI BO‘LGAN MA‘RIFATPARVAR VA TA‘LIM ISLOHATCHISI

Jumayev Abror Muzaffarovich

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Tarix” kafedrasida o‘qituvchisi:

E-mail: abrorjumayev203@gmail.com

Xalilova Sabrina Obid qizi

O‘zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti talabasi

E-mail: xalilovasabrina084@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadidchilik harakatidagi faoliyati va uning O‘rta Osiyo ma‘rifiy taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda tahlil etiladi. Behbudi asarlarida ilgari surilgan islohotparvarlik g‘oyalari, milliy o‘zlikni anglash, dunyoviy bilimlar va zamonaviy ta‘lim tizimini joriy etish masalalari tadqiq etiladi. Shuningdek, uning dramaturgik va publitsistik faoliyati orqali ijtimoiy ong va ma‘naviyatni yuksaltirishga qaratilgan sa‘y-harakatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari Behbudi merosining bugungi jamiyat uchun ham ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudi, jadidchilik, ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, ta‘lim islohoti, publitsistika, dramaturgiya, O‘rta Osiyo, ma‘naviy taraqqiyot.

Аннотация. В данной статье научно анализируется деятельность Махмудходжи Бехбуди в рамках джадидистского движения и его вклад в просветительское развитие Средней Азии. Рассматриваются реформаторские идеи, представленные в его произведениях, вопросы национального самосознания, внедрения светского образования и модернизации системы обучения. Особое внимание уделено драматургическому и публицистическому наследию Бехбуди, направленному на повышение общественного сознания и духовности. Результаты исследования свидетельствуют о высокой актуальности наследия Бехбуди в контексте современных общественных трансформаций.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, джадидизм, просвещение, национальное самосознание, реформа образования, публицистика, драматургия, духовное возрождение, Средняя Азия.

Annotation. This article provides a scholarly analysis of Mahmudkhoja

Behbudi’s activity within the Jadid movement and his contribution to the educational development of Central Asia. The study examines the reformist ideas presented in Behbudi’s works, including issues of national identity, the integration of secular knowledge, and the implementation of a modern education system. Additionally, his dramatic and journalistic activities aimed at raising social consciousness and enhancing spirituality are highlighted. The research findings demonstrate that Behbudi’s legacy remains relevant for contemporary society.

Key words: Mahmudkhoja Behbudi, Jadidism, enlightenment, national awakening, educational reform, journalism, dramaturgy, Central Asia, spiritual development.

XX asr boshlarida Turkiston xalqlari tarixiy burilish yoqasida turardi. Bir tomonda Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining zulmi, boshqa tomonda esa milliy o‘zlikni yo‘qotish xavfi mavjud edi. Bunday sharoitda xalqni zulmatdan nur sari boshlovchi, millat tafakkurini uyg‘otuvchi ma’rifatparvarlarga ehtiyoj nihoyatda kuchli edi. Ana shunday siymolardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy edi. U 1875-yilda Samarqandda tug‘ilgan. Dastlab eski uslubdagi maktabda, keyin esa madrasada tahsil olgan. Arab, fors va turkiy tillarni mukammal egallab, keyinchalik rus tilini ham o‘rganadi. U yoshligidan ilm-fanga, ayniqsa dunyoviy bilimlarga katta qiziqish bildirgan. Tabiiy fanlar, tarix, geografiya, siyosatga oid kitoblarni mutolaa qilgan. Shuningdek u ilm, ma’rifat, matbuot, sahna san‘ati va siyosat orqali butun bir avlodni uyg‘otdi. Uning serqirra faoliyati Turkiston jadidchilik harakatining yuksalishida hal qiluvchi rol o‘ynadi. [1, 156]

M.Behbudiy ma’rifatning, maorif ishlarining faqatgina nazariyotchisi bo‘lib qolmay, balki o‘lka maorifi rivojida amaliy tomondan ham jonbozlik ko‘rsatdi. U Istanbul, Ufa, Qrim, Qozon, Orenburg kabi shahar va mamlakatlarni ko‘rdi va bildi, "Yangi usul"ni turkistonliklar orasida birinchilar qatori amalda qo‘lladi. 1905 yilda Behbudiy tomonidan tashkil etilgan maktab Samarqand shahri yaqinidagi qishloqlarida edi. Tajriba sifatidagi bu maktabning shaharda emas, balki qishloqda ochilishining boisi bor edi. Chunki shaharda ushbu usulda o‘qitishga qarshi chiquvchilar hukumat tomonidan ham, mahalliy aholi tomonidan ham juda ko‘p edi. Bu usulning muvaffaqiyatiga boshda mahalliy aholi ishonishmaydi. Lekin hamma ish juda silliq ko‘chadi. Ota-onalar bu maktabda bolalarining juda tez savod chiqarayotganligini ko‘rib, hayron bo‘ladi va shubhalana boshlaydilar.

Avvallari 3-4 yillarda o‘rganadigan narsalarni bolalar bir yilda o‘rganib olishgan

edi. Ko‘pchilik "tez o‘rgangan, tez esidan chiqaradi" deb xulosa qiladi. Lekin shogirdlar olgan bilimlarini unutish o‘rniga, kundan-kunga olg‘a qarab borayotgan edi. Behbudiy boshda shogirdlarga oddiy o‘quv-yozuvni o‘rgatgan bo‘lsa, keyin "Haftiyak"ni o‘rgatishga kirishadi. Ushbu "Haftiyak ni o‘qitish jarayonida Behbudiyda yangi fikr paydo bo‘ladi. Endi u o‘z o‘quv dasturiga sistemali suratda arab tilini o‘qitishni kiritadi. Bundan tashqari, maktabda arifmetika, geografiya va shu kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitilar edi. [2, 183]

Shogirdlar soni 40 talar atrofida bo‘lib, 7 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalar edi. Behbudiy maktabni ko‘rish uchun yashiriqcha kelgan mahalliy aholi va mullalarni hamkorlikka chaqiradi. Lekin mullalarning bu taklifdan esxonalari chiqib, vahima ko‘tarishadi. Ota-onalarning ko‘pchiligi globusni ko‘rib, o‘qituvchi Behbudiyning geografiya darsida "yer aylanadi", "quyosh erdan katta" degan so‘zlarini eshitib, uni "sha’riatga zid" narsalar haqida tashviqot qilishda ayblay boshlaydilar. Shunda Behbudiy erishgan shuncha muvaffaqiyatlariga qaramay. baribir, o‘ziga bir hamkor, hammaslak, hamfikir kerak ekanligini anglaydi. Uning Samarqand shahri, Jomboy tumani, Rajabamin qishlog‘ida o‘z hisobidan maktab ochib, bolalarga saboq berayotgan Abdulqodir Shakuriy bilan tanishuvi bu hamkorlikni boshlab berdi. [3, 150]. Jug‘rofiya fanidan shogirdlarga dars beradi. Behbudiy bu haqda "Turkiston viloyatining gazetisi" da "...kamina raqami haruf ham haftaga bir-ikki marotaba borib tartib va prugrammalarini muallim ila bomashvarat tuzaturman. Jug‘rofiya va masohat to‘g‘risida ta’lim va imtihon qilarmiz. Xulosa, alhamdulillah, maktabni rivoji yaxshi va bir oz aqcha pul to‘g‘risidan tazyiqi bordur", deydi. Bundan tashqari ushbu maktabda Behbudiyning jug‘rofiyadan dars berganligini Rahmatulla Rahimiy "Turkiston viloyatining gazetisi" da o‘zining "Buzug‘ maktab usuli jadida bolasi", degan maqolasida ham eslab o‘tgan. [4, 550]

Behbudiyning ma’rifat yo‘lidagi xizmatlaridan yana biri buning omi xalq orasida ziyo tarqatmoq uchun tashkil etgan kutubxonasi edi. Behbudiy birinchi bo‘lib Samarqandda musulmon kutubxonasini tashkil etish fikrini ahli ilm, aqraboyu ulamolar oldiga qo‘yadi va bu yo‘lda ularni hamjihatlikka chaqiradi. O‘sha davrda bir qancha vaqt faoliyat ko‘rsatib, ancha mashhur bo‘lgan ushbu kutubxona haqida davning etakchi nashri sanalgan "Turkiston viloyatining gazetisi" da xabarlar berib borilgan. Samarqandda kutubxona tashkil etish kabi xayrli niyat tug‘ilganligi haqida "Turkiston viloyatining gazetisi" da Behbudiy imzosi bilan "Ob otkritiye musulmanskoy biblioteki chitalniy v Samarkand Mutolaaxona" degan maqola bosiladi. Unda "Samarqandda umumiy mutolaaxona - biblioteka, chitalniy ochmoq uchun o‘n ikki nafar muhtaram

kishilar ila birga 27 bobdan iborat bir dastur, ustaf tuzib, janob baland darajalik Samarqand gubernatoriga topshurub edukki, inshoollo, qonunnoma jamiyati mustahkam bo‘ldi", deydi muallif.

U tug‘ilib o‘sgan Turkiston yurti o‘sha davrda mustamlaka zulmi, jaholat domiga botgan edi. Ammo Behbudiy xalqni ilm orqali, ma’rifat orqali, uyg‘oq tafakkur orqali o‘sha zulmatdan, nodonlikdan, befarqlikdan qutqarish mumkinligiga ishondi. Bu yo‘lda u hayotini fido qildi.

Behbudiy jadidchilik harakatining peshqadamlaridan biri bo‘lib, eski, o‘zini oqlamagan uslublarni tanqid qilib, yangi hayot tarzi, yangi ta’lim tizimini ilgari surdi. Behbudiy, musulmon xalqlari orqada qolayotganining asosiy sababi – jaholat, ilmning yo‘qligi, ijtimoiy befarqlik va zo‘ravonlik edi. Shu sababli u har bir islohotga, har bir yangilikka ilm va ma’rifat mezonida yondashgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy butun faoliyatini xalqni ilm-ma’rifatli qilishga qaratdi. Ammo xalqni marifatli qilmoq uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Buning uchun u usuli jadid maktablari tarmog‘ini kengaytirish maqsadida yangi o‘quv darsliklar yaratish, o‘quvchilarni o‘quv darsliklari bilan ta’minlash, kutubxonalar nashriyotlar tashkil qilish ishlari bilan muttasil shug‘ullandi. 1904-1910-yillarda "Risolayi Asbobi savod" "Muntaxabi jug‘rofiya umumiy"(Qisqacha umumiy geografiya),"Kitobat ul-aftol"(Bolalar maktublari), "Muxtasar tarixi islom"(Islomning qisqacha tarixi) darsliklarini yaratdi.

Savod alifbodan boshlanadi. Shuning uchun ham jadid pedagoglari"usuli savtiya "metodida faoliyat yuruta boshlagan.Maktablar uchun alifbo darsliklarini yaratishni esa birinchi darajali masala deb qaradilar. [1, 32b]

Behbudiy O‘rta Osiyo adiblari ichida birinchi dramatik asar "Padarkushni"yaratdi. Behbudiy milliy teatr va dramaturgiyaga katta hissa qo‘shgan.

Ungacha mazkur hududda na turkiy na forsiy tilda drama janrida birorta asar yaratilmagan edi. Bu asar orqali u oiladagi axloqiy inqiroz, jaholat va begonalashuv kabi muammolarni ochib bergan. Asarda ota-onaga nisbatan ehtiromsizlik, ilmga befarqlik va ma’naviy tanazzul keskin tanqid qilinadi. Asarni dunyo ko‘rishi oson kechmadi. Bunga sabab birinchidan rus imperiyasi hukumati mustamlaka Turkistonni ma’rifat yo‘liga kirib borib o‘zini madaniyatini singdirish edi. Ikkinchidan turg‘unlik va tutqunlik tufayli avj olgan jaholat, mutasaablik.

Xullas 1911-yilda yozilgan "Padarkush"drammasi 1913-yilda bosilib chiqqan. Kitob jildidagi "Borodino jangi va Rusiyaning fransuz bosqinidan halos bo‘lish yubiley saxnasiga bag‘ishlanadi degan yozuv" uning Tiflis senzurasini bilan chop etilishi shuni

ko‘rsatadiki ish oson ko‘chmagan. [1, 52]

Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuotni xalqni uyg‘otishning kuchli vositasi deb bilgan. 1906-yilda u “Taraqqiy” nomli gazeta chiqarishda katta rol o‘ynagan. Bu gazetalar orqali u zamonaviy fanlar, siyosiy jarayonlar, xalqaro voqealar va mahalliy ijtimoiy muammolar haqida yozgan. 1913-yilda esa “Shuhrat” gazetasi nashr etiladi. Bu nashrlar orqali u xalqda fikrlash madaniyatini shakllantirishga intilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurashidov Zaynobidin. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. 156 b.
2. AYNIIY S. Eski maktab.-Toshkent: G‘afur G‘ulom. 1988 yil, 183-bet.
3. AYNIIY S. Buxoro inqilobí tarixi uchun materiallar.-Samarqand-Toshkent:SSSR xalqlarining Markaziy nashriyoti. 1926 yil, 150-bet.
4. ADULLAYEV Y. Eski maktabda xat-savod o‘rgatish.-Toshkent: O‘zbekiston. 1960 yil, 550-bet.
5. ALIYEV A. Mahmudxo‘ja Behbudiy.-Toshkent:-Yozuvchi. 1994 yil, 32-bet.
6. Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyatining o‘rganilishi. "Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari" ilmiy konferensiya-T.: Rishton XTB, 2023.